



Abdusalimov Muxammadali Shuxrat o'g'li

Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali

Kompyuter injiniringi fakulteti 614-23 guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi kunda O'zbekistonda yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar haqida so'z yuritilgan. Yoshlarga bildirilayotgan ishonch va ular davlat kelajagi ekanligi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *o'zgarish, yangilik, yangilanish, Hemis*

Hozirgi kunda davlatimiz nomiga "yangi " so'zini qo'shib aytish urfga aylanib bormoqda. Lekin nega aynan "Yangi o'zbekiston" deyilishini ko'pchilik hali anglab ulgurmagan. Nega aynan "Yangi O'zbekiston"?

Bunga sabab qilib unda bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar, islohotlar va yangilanishlarni olishimiz mumkin. Yurtimizda hamma soha birdek taraqqiy etmoqda. Qaysi sohaga nazar solmaylik, o'zgarish, yangilik va hokazolarga ko'zimiz tushadi.

Misol uchun ta'limni olsak, uning hamma bo'g'inlarida yangilanishlar bor. Hech birini bir biridan ustun qo'yilgani yo'q. Maktabgacha ta'lim muassalarida ham raqobat ancha kuchaygan. Ilgari qishloqda bir dona 100-150 nafar tarbiyalanuvchini qamrab oladigan davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lardi. Bu aholi talabini qondira olmasdi, chunki o'zbek xalqi juda ham bolajon xalq bo'lganligi uchun har bir xonadonda kamida 2-3 nafardan bola bir edi. Bugungi kunga kelib MTT larning soni qishloqning o'zida 4-5 tani tashkilotni tashkil qiladi.

Davlatimizning xususiylashtirish siyosati tufayli xalqning dunyoqarashi o'zgardi. Shu sababli tadbirkorlar orasida sog'lom raqobat kuchaydi. Maktab ta'limini oladigan bo'lsak, sinf xonalarida kamera nazoratini tashkil qilinishi ustoz va o'quvchi orasida bo'layotgan tushunmovchilik va mojaroli vaziyatlarni qiyinchiliksiz bartaraf etish imkonini beradi. Eng asosiy o'zgarish u emas albatta. Maktablarning "Kundalik com" sayti orqali onlayn baholash va nazorat tizimiga o'tkazish – bu eng katta o'zgarish hisoblanadi. Avvalari, davomat olish uchun o'qituvchi sezilarli vaqt yo'qotar edi hamda o'quvchilarni baholash juda qiyin bo'lgan. Eng muhimi esa ota-onalar farzandining ta'lim sifatini kuzatishi osonlashdi. Sinf o'quvchilari orasida o'rni va darajasini aniqlash qulaylashtirildi. Maktab ta'limida ham xususiylashtirishning ta'siri yaqqol ko'rinib turadi. Bunda o'quvchiga beriladigan ta'lim sifati yanada yaxshi bo'ladi. Oliy ta'lim haqida aytadigan bo'lsak undagi yangilanishlar ham bisyor. Ta'lim, baholash, davomat jarayonini online tizim almashtirish talabalarni anchayin xursand qildi. Endi ular kerakli adabiyotlarni qidirib yurishmaydi. Hemis elektron saytida hammasi birlashtirilgan. Agar talaba sababsiz ko'p dars qoldirsa o'z-o'zidan kerakli javobgarlikka tortiladi. Bu haqida universitetlarda yaxshigina tushunchalar beriladi. Talaba va ustozlar





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

orasida korrupsiyaning oldi olinadi . Shundayin shaffof muhitda tarbiyalanayotgan va ta'lim olayotgan yoshlar albatta yaxshi mutaxasis bo'lib yetishishadi.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishishiga bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz- yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning
BMT Bosh Assambleyasining
72-sessiyasida so'zlagan nutqidan

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan. <https://www.strategy.uz/>

